

## **SO'Z BIRKMASI VA UNDAGI AYRIM MUAMMOLAR**

Yusufxonova Sevara,  
Qo'qon DPI talabasi, Uzbekistan

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek tili so'z birikmalarining tasnifi va ta'rifi haqida fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z birikmasi, tobe bog'lanish, otli birikma, fe'lli birikma, ravishli birikma

So'z birkmasi deb so'zlarning hokim-tobelik munosabatiga aytildi. So'z birkmasi quyidagi qonuniyatlar asosida tashkil topadi:

1. Birdan ortiq mustaqil so'z ;
2. A'zolarning ma'noviy va gramatik jihatdan mosligi;
3. Tobelik;
4. Tushuncha ifodalash.

So'z birkmasi elementlarida biri doimo birinchi kelgan so'z tobe, ikkinchisi esa hokim qismdan tashkil topadi. So'z birkmasi bo'yicha tilshunosligimizda turli xil talqin mavjud. Bularidan biri so'z birkmasida hokim a'zoning qaysi so'z turkumiga ko'ra turlarga bo'linishi. R. Sayfullayeva va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida quyidagi turlarga ajratilgan: 1. Ismli birikma:hokim a'zo ot, sifat, son, olmosh turkumida ifodalanadi. Masalan, ulkan bino(ot), hammadan katta(sifat), minglarning biri(son) talabalarning barchasi(olmosh). 2. Fe'lli birikma:hokim a'zo fe'l turkumi bilan ifodalanadi. Masalan, vazifani qil (sof fe'l), ko'p o'qish (harakat nomi), kitobni o'qigach(ravishdosh), tez yugurgan(sifatdosh).

A. G'ulomov va M. Asqarovaning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida esa quyidagicha tasnif qilingan:

- 1.Otli birikma:ot,sifat,son, olmosh
- 2.Fe'lli so'z birikma:fe'l
- 3.Ravishli birkma:ravishdan tashkil topadi.

Maktab darsligi bo'l mish 8-sinf ona tili darsligida esa ikkiga: 1. Otli birikma:ot, sifat, son, olmosh, ravish, otlashgan so'zlar; 2. Fe'lli birikma:sof fe'l, ravishdosh, harakat nomi, sifatdosha bo'linadi. Ushbu tasniflardan ko'rinish turibdiki, uchta kitobda 3xil tasnif qilingan. Bularidan qaysi birini to'g'ri deb hisoblaymiz? Men ushbu tansiflardan maktab darsligida keltirilganini to'g'ri deb o'ylayman. Chunki ushbu tasnif so'zlarning otlashish, otlashmaslik jihatdan taanif qiling. Bu esa eng



to'g'iroq variant. O'quvchilarga bu tasnif tushunish uchun ancha qulay bo'ladi. Ammo maktab darsligida ham so'z birikmasini ajratishda muommoli jihatni bor. Biz mактабда gaplarni so'z birimasiga ajratishda, avvalo, kesimni topib qolgan barcha so'zlarni kesmiga bog'lab ajratiladi. Bunday ajratishda biz kesimlik shakli bilan birga so'z birikmasini hosil qilamiz. Lekin bu noto'g'ri tahlil bo'lib qoladi. Biz agar shunday tahlil qilsak, u so'z birikmasi emas gap bo'lib qoladi, chunki unda kesmlik shakli orqali tugal fikr ifodalanadi. Biz buni noaniq shaklida so'z birkmasiga ajratishimiz zarur. Masalan, Bog'dagi qizil, oq atirgullardan terdim. Gapini olsak bu gapladigi so'z birikmalarini aturgullarni terdim, bog'dagi terdim, qizil atirgullarni, oq atirgullarni kabi ajratsak bu xato bo'ladi. Quyidagicha ajratsak maqsadga muvofiq bo'ladi: atirgullar termoq, bog'da termoq, qizil atirgullar, oq atirgullar. Bunday tahlilda so'z birkmasining talablariga to'la mos keladi. Bunday xatoga qo'ymaslik kerak. Zero, biz bunday xatoliklarni oldini olib yoshlarga to'g'ri ta'lim berishimiz kerak.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Акрамов, Ш. (2021). ИККИНЧИ ДАРАЖАЛИ БЎЛЛАКЛАРНИНГ ВАЛЕНТЛИК АСПЕКТИДАГИ ТАЛҚИНИ: Шукуржон Акрамов Кўқондавлат педагогика институти доценти. In *Научно-практическая конференция*
2. R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M.Qurbanova, Z. Yusupova, M. Abuzalova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent 2009
3. Tokhtasinovich, A. S., & Abdujalilovna, X. S. (2022). IMPULSE AND ITS RELATIONSHIP TO THE CONTENT OF THE SENTENCE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1852-1859.
4. G'ulomov va M. Asqarova "Hozirgi o'zbek adabiy til. "O'qituvchi" nashriyoti 1965.
5. 8-sinf ona tili daraligi 2019.